

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THEMATIC CONTENT OF MUKHAMMASS IN THE POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD****Gulshan Hayitovna Fayziyeva***Independent Researcher at Bukhara State University*Email: gulshanfayziyeva8@gmail.com*Bukhara, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Uzbek poetry, muhammas, theme, symbolic image, tabi khud muhammas, busy, weight.

Received: 10.09.26**Accepted:** 11.09.26**Published:** 12.09.26

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the thematic scope and artistic features of mukhammas poems created during the period of Uzbekistan's independence. The study examines the main themes of these poems through specific examples. In particular, it analyzes mukhammas dedicated to love for the Motherland, the glorification of the homeland, love, the spirit of heroism, historical values, and national ideals. The article also substantiates that the mukhammas genre reached a new stage of development during the independence period, with its ideological and artistic potential significantly expanding. Using a comparative and analytical approach, the study highlights the distinctive poetic characteristics of mukhammas works created in this period.

ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATIDA MUXAMMASLARNING MAVZU MUNDARIJASI**Gulshan Hayitovna Fayziyeva***BuxDU mustaqil izlanuvchisi*gulshanfayziyeva8@gmail.com*Buxoro, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, muxammas, mavzu, ramziy obraz, tab'i xud muxammaslar, band, vazn.

Annotatsiya: Ushbu maqolada istiqlol davrida yaratilgan muxammaslarning mavzusi, badiiy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqodda muxammas mavzulari misollar asosida yoritib berilgan. Xususan, Vatanga muhabbat, yurt madhi, ishq

masalalari, qahramonlik ruhiyati, tarixiy qadriyatlar va shu kabi mavzularda ko'plab muxammaslar yaratildi. Muxammas janri mustaqillik davrida o'zining alohida kamolot bosqichiga chiqdi. Ushbu maqolada ana shu davr ijod namunalari qiyosiy tahlilini ko'rishimiz mumkin.

ТЕМАТИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ МУХАММАСОВ В ПОЭЗИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Гульшан Хайитовна Файзиева

Независимый исследователь Бухарского государственного университета

gulshanfayziyeva8@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: узбекская поэзия, мухаммас, тема, символический образ, таби худ мухаммас, занят, ве.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения анализируются тематический круг и художественные особенности мухаммасов, созданных в период независимости Узбекистана. В исследовании основные темы мухаммасов раскрываются на основе конкретных примеров. В частности, рассматриваются произведения, посвящённые любви к Родине, прославлению Отечества, теме любви, героическому духу, историческим ценностям и национальным идеалам. Обосновывается, что в период независимости жанр мухаммаса достиг нового этапа своего развития, значительно расширив свои идейно-художественные возможности. В статье произведения данного периода исследуются на основе сравнительно-аналитического подхода, что позволяет раскрыть их своеобразные поэтические особенности.

Kirish. Adabiyot qadim davrlardan beri inson bilan yonma-yon yashab kelayotgan so'z san'ati hisoblanadi. Qator bosqichlar asosida shakllangan o'zbek adabiyoti mustaqillik davriga kelib o'zining yangi kamolot cho'qqisiga erishdi, desak also mubolag'a bo'lmaydi. Zero, XX asrning 90-yillarida O'zbekistonda istiqlool adabiyoti degan estetik hodisa yuz berdi. Mustaqillik davrida o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotimizning mantiqiy davomi va davomchisi sifatida maydonga chiqdi. Bu davr adabiyotiga xos xususiyatlar XX asrning 60-yillarida kuchayib, 80-yillarning oxirlarida belgilansa-da, milliy adabiyotimizdagi alohida bosqich sifatida shakllanishi 90-yillarning o'rtalarida sodir bo'ldi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti turli tafakkur yo'nalishidagi ijodkorlarning estetik qarashlari natijasida bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Mustaqillik davri adabiyoti hukmron mafkura zulmidan ozodlik mahsuli, olam va inson ruhiyati hodisalariga turlicha qarashlar mahsulidir. Bu davrda olamning turli talqinlari vujudga keldi. Bu adabiyotida ifoda imkoniyatlari kengaydi.

Istiqlol yillarida barcha ijod eshiklari ochildi, ijodkorlar uchun ijod va so'z erkinligi yaratib berildi. Istiqlol davrida adabiyot mavzu jihatidan ham o'zgarishlarga yuz tutdi. xususiyatlari sifatida baholash mumkin. Nazm sohasi ham istiqlo davri ta'sirida anchayin rivoj topdi. Turfa mavzular aks etgan ijod namunalari, xilma-xil janrlarda yozilgan she'rlar shoirlar tomonidan e'lon qilina boshladi. Istiqlol davri sharofati bilan o'zining yangi umrini yashayotgan janr sifatida muxammas janrini alohida qayd etishimiz mumkin.

Ta'kidlash o'rinliki, muxammas janri mustaqillik davrida o'zining yangi kamolot bosqichiga erishdi. Ko'plab ijodkorlar tomonidan yaratilgan muxammaslari istiqlo davri adabiyotida muhim o'rin egalladi. Ularning badiiy tili ham o'ziga xos bo'lib, ba'zi shoirlar muxammas janrida o'zlari mustaqil tarzda she'r yaratgan bo'lsalar, ba'zi ijodkorlar o'zlaridan avval yashab o'tgan shoirlarga taxmis bog'laganliklarining guvohi bo'lishimiz mumkin. Xususan, Abdulla Oripov, Omon Muxtor, Omon Matjon, Muhammad Ali, Usmon Azim, Jamol Kamol, Sirojiddin Sayyid, Zikrilla Ne'mat, Xosiyat Bobomurodova, Farid Usmon, Shafoat Termiziy, Hazrat Zulfiqor kabi ko'plab ijodkorlar bu janrda samarali qalam tebratishgan. Bu ijodkorlarning qator muxammaslari mustaqillik davri adabiyoti sahifalarini bezab turibdi. Ayniqsa, 90-yillarda O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov turli shoirlar ijod namunalari taxmis bog'lagan holda muxammasning ajoyib ko'rinishlarini yaratdi. "Navoiy g'azaliga muxammas", "Fuzuliy g'azaliga muxammas", "Bobur Mirzo g'azaliga muxammas", "Vatandin yaxshi yor bo'lmas" va shu kabi qator muxammas janriga oid nazmiy namunalar Erkin Vohidov ijodining o'ziga xos mahorat sahifalaridir desak, also mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, shoirning qozoq shoiri Jumakent Najmiddinov g'azaliga muxammas tarzida yaratilgan she'riy javobi ijodkorning haqiqiy san'atkor ekanligidan dalolat beradi.

Jahonda men tug'ilgan o'lkadek hech bir diyor bo'lmas,
Bu yanglig' bog'-u gulshan ham bu yanglig' guluzor bo'lmas,
Vatan sevmakdin ortiq menga olamda shior bo'lmas.
Vatan ishqida yongan qalb, bilingki, asti xor bo'lmas,
Vatan sevgan murodiga yetur, hech dilda zor bo'lmas.[1]

misralari ila boshlanuvchi ushbu muxammas 4 banddan tashkil topgan. Qofiyalanish tizimi ham muxammas yozish an'anasiga muvofiq, ya'ni a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a, e-e-e-e-e-a.

Ikkinchi misrada shoir qofiyaviy tizimni ta'minlash maqsadida "gulzor" leksemasining she'riy talabga ko'ra o'zgargan shakli, ya'ni "guluzor" formasini qo'llaydi. Ushbu guluzor so'zini shakliy jihatdan ikki xil ma'noda tahlil qilish mumkin, ya'ni:

Guluzor – gulzor so'zining o'zgargan shakli.

Guluzor – gulyuz.

Ikkinchi misra mazmunini ham ikki xil tahlil qilish mumkin:

1) Vatanidagi gulzorga hech qaysi gul chamanining o'xshamasligi;

2) hech qaysi gulzorning, ya'ni gul yuzning yer yuzidagi eng go'zal maskan – Vatanga qiyos etib bo'lmasligi. Shoir o'xshatishlari asosida biroz yashirinlik mavjud, ona Vatanini guluzor, ya'ni gulyuzga o'xshata turib, o'zining shoirlik mahoratini namoyon eta olgan.

Vatanga bo'lgan muhabbat ruhi ila sug'orilgan ushbu ijod namunasining birinchi bandidagi qofiyadosh so'zlar quyidagilar: diyor-guluzor-shoir-astixor-zor. Erkin Vohidov ona yurtga bo'lgan muhabbatini ushbu satrlar orqali ifodalar ekan, unda shoir o'zi tug'ilib o'sgan yurtning hech yerda yo'qligi, undagi gulzorning hech qaysi gulzorga mengzab bo'lmasligi, Vatanni sevishni o'ziga shoir aylaganini, Vatan ishqida kuygan qalbning hech qachon xor bo'lmasligi-yu, Vatanni sevgan inson har doim murodiga yetishi hamda dilida armoni bo'lmasligini go'zal badiiyat vositasida ifodalab beradi.

Bundan tashqari, Erkin Vohidov "Vatandin yaxshi yor bo'lmas" muxammasining bandlaridagi mazmunini yanada oshirish maqsadida satrlarda ketma-ket ma'noviy jihatdan bir-biriga yaqin so'zlarni qo'llaydi. Birinchi misrada "diyor – o'lka", ikkinchi misrada "bog'i gulshan – guluzor".

Bu davrda muxammaslarning mavzu yo'nalishi rang-baranglik kasb etganini alohida ta'kidladik. Tabiatan har bir bandi besh misradan iborat bo'lgan muxammaslar mumtoz adabiyotda ko'proq yor, ishq borasidagi muxammaslar yozilgan bo'lsa, davrlar o'tgan sari bu janrning ham mavzu olami kengayib boradi. Ayrim ijod namunalaridan dunyoda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy yangiliklar, fan va texnika yutuqlari ham o'rin oladi. Masalan, jadid adabiyotining vakili Ibratning quyidagi muxammasida Turkistonda temir yo'lining birinchi marta qurilishini hayajon bilan kutib olgan oloman qiyofasi tasvir etiladi:

Namangan ahlig'a xo'b o'ldi bir yaxshi zamon keldi,

Murodoti xaloyiq uzra bir jon-u jahon keldi,

Dema jon-u jahon avqot uchun bu xalqqa don keldi,

Dema don, balki bunlarga maishat uzra non keldi,

Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

Yuqoridagi misralardan ko‘rinadiki, shoir vagonni – temir yo‘lni “jon-u jahon”, “nondan” yuqori qo‘yadi. Temir yo‘l qurilishini ko‘klarga ko‘tarib maqtaydi.[2]

Zamon o‘zgarishi bilan muxammaslarning mavzusi ham o‘zgarib bordi. Yuqoridagi muxammas jadid adabiyoti namunasi bo‘lib mustaqillikdan ancha oldin yaratilgan. Mustaqillikdan so‘ng esa muxammaslarda yor tasviridan tashqari erk, Vatanga muhabbat, insoniy orzu va armonlar, kabi mavzularda bitilgan muxammaslar ko‘paydi. Adolatsiz tuzim, adolat izlagan olamon siymosi bir qadar orqaga chekindi. Ammo har bir davrning o‘z muammosi bo‘ladi. Davr muammolarini aks ettiruvchi muxammaslar ham yaratildi. Erkin Vohidovning “Sirdaryo o‘lani” nomli muxammasida orol muammosi bayon etilib, uning qurib qolishidan qo‘rqqan inson siymosi aks etadi. Quyida muxammasning birinchi bandini keltirib o‘tamiz:

Osmono‘par Tiyonshonning qorisan,
Ko‘hna Jayhun yo‘ldoshisan, yorisan,
Ona vodiy hayotisan, borisan,
Quvonchisan, alamisan, zorisan,
Oqib turgin, qurib qolma, onajon.[3]

Shoir muxammasning har bir bandi oxirida ona daryoga quyidagi iltimosini aytadi: “Oqib turgin, qurib qolma, onajon”. Asarda o‘zbekning quvonchi, hayoti bo‘lgan daryoni qurimasligi uchun barcha narsaga tayyor lirik qahramon siymosi gavdalanadi. She’rda shoir daryoni onaga o‘xshatadi. Daryo bilan suhbat qurib, uning oqib turishi uchun o‘z jonini berishga tayyor bolasi ekanligini ta’kidlaydi.

Istiqlol davrida ya’ni shoirning o‘z tab’i asosida yaratilgan ijod na’munalarining salmog‘i ham anchagina. Bunday shakldagi muxammaslarni Jamol Kamol, Samandar Vohidov kabi shoirlar ijodida uchratish mumkin. Ma’lumki, muhabbat mavzusi eng qadimiy mavzulardan biri sifatida hech qachon eskirmaydi. To‘g‘ri, zamon o‘zgarishi bilan birga muhabbatni tasvirlash usullari ham bir qadar o‘zgardi. Ammo mavzu o‘sha-o‘shalgicha qoldi. Jamol Kamolning “Ul nozaninki” nomli muxammasida muhabbat mavzusi quyidagicha tasvir etiladi:

Ul nozaninki, ko‘zni ko‘k, qoshni qaro qilur,
Zamona ahlini asir-u mubtalo qilur,
Har lahza bir noz-u karashma ixtiro qilur,
Ne ixtiroki, jonga yuz dard-u balo qilur,
Sanga qilurni bir nafas, har dam mango qilur.[4]

Jamol Kamol yorni o‘ziga oro berib, qoshini qora, ko‘zini ko‘k qilib, turli xil noz karashmalarni ixtiro qilib, barchani o‘ziga maftun etishini chiroyli usulda tasvirlab beradi. Keyingi misralarda yorning bosgan qadami, nozlari jonni olishi aytiladi. Shoir yor bu qadar noz-u karashmani kimdan o‘rgangan ekan, balki uning ustozini parimikin deya o‘yga toladi va oshiqning

ishq iztiroblarini an'anaga muvofiq ifoda etadi. Jamol Kamolning so'roq ohangidagi, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan yana bir muxammasi "Bizga salom qani?" nomli she'ridir. Ushbu muxammasning birinchi va oxirgi bandlarini ko'rib chiqamiz:

Oqil ersang, turmushingda tartib-nizom qani?

Notiq esang, so'zlaringda fikr-umarom qani?

Ahli tamiz esang, elga shirin kalom qani?

Ahli qalam esang, she'rga ehtirom qani?

Ey nozanin, bizdek g'ariblarga salom qani?

Bu mushkulot poyoniga bir kun etarmikin?

Bu savdolar qaytmas bo'lib, butkul ketarmikin?

Insoniyat adolatni dastur etarmikin?

Gar etmasa, bu dunyoda unga davom qani?

Ey nozanin, bizdek g'ariblarga salom qani?[5]

Bandlarda boshidan oxir tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan muammolar tasvirlangan. Asarning to'lig'icha savol tariqasida yozilganligi kishini beixtiyor o'yga toldiradi va she'rning o'quvchiga ta'sir kuchini oshiradi. Muxammasning keyingi bandlarida adolatli bo'lish, adolatli insonlar haqida ham to'xtalib o'tilgan. Agar insoniyat adolat yo'lini tutmasa, bu dunyo davom etmasligiga alohida urg'u berilgan. Muxammasning har bir bandi oxirida "Ey nozanin, bizdek g'ariblarga salom qani?" deya murojaatni kuzatishimiz mumkin. Yana shunday tarbiyaviy mavzudagi muxammaslardan biri O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning "To yigit erdim" nomli muxammasidir.

Sur'atidin vaqtning kundan-kun oshdi hayratim,

Rost kelmas emdi umrim sur'atiga fursatim,

Lol-u hayron bo'lmangiz ko'rgach bu hol-u suratim,

To yigit erdim qarilarg'a ko'p erdi xidmatim,

Qarig'an chog'da yigitlarga og'irdur suhbatim.[6]

Qarigandan keyin inson yoshlikning qadriga yetadi. Qariganda yoshlarni yo'lga solaman desang, ko'p hollarda sening nasihating ularga yoqmaydi. Bu hayotiy haqiqat she'rda o'zining mohirona badiiy ifodasini topgan. Ushbu muxammas Alisher Navoiy g'azaliga bog'langan bo'lib, yigitlik davri bahorga, qarilik esa qishga o'xshatiladi. Shoir uchinchi bandda yildan yilga mehnat qilish, uni azobga qo'yayotganini, qancha orzulari ro'yobga chiqmagani va yoronlar ham qarigani sayin ulardan qochayotgani, qariganda inson yor-u birodarga, ulfatga muhtoj bo'lishi tasvirlagan. Muxammasda shoir o'z yoshini 50 bahor deb tasvir etadi. Xuddi bahori so'lib, kuz fasli kelgandek qarilik tasvir etiladi.

Bu davrda shaxs ijtimoiylashuvini ham ko‘rishimiz mumkin. Ijtimoiylashish shaxsning eng muhim belgisidir. Bu degani ijtimoiylashgan shaxs jamiyatning joriy holati, unda yuz berayotgan hodisalarning mohiyati, ular erta qay manzilga eltishi haqida fikrlaydi; shu asosida ijtimoiy idealiga ega bo‘ladi, shundan kelib chiqib, hayotiy prinsiplarni belgilaydi va o‘z faoliyatida ularga amal qiladi.[7]

Ilgari davlat egalari, shohlar, ilm ahli haqida, ularni madh etish mavzusidagi muxammaslar mavjud edi. Istiqlool davrida kelib ham ushbu an‘ana saqlanib qoldi. Bugungi kun she‘riyatida ilm ahli bo‘lgan muallimlar mavzusidagi muxammaslar ham yaratildi. Ana shunday muxammaslardan biri Mahmud Toirning “Muallim” nomli muxammasidir. Keling, muxammas bilan qisman tanishaylik:

Ma‘rifat daryosin mirobi – ul zot,
Ko‘ngil samosining oftobi – ul zot,
Yuz ochgan savolning javobi ul – zot,
Tilidan bol tomib aytguvchi har kim,
Muallim bu, muallim bu, muallim.[8]

Har bir davrda bo‘lgani kabi bugungi davrning dolzarb ijtimoiy masalalaridan biri bu muallim maqomini yuksaltirishdir. Qadim qadimdan ilm ahli ulug‘langan va ularga o‘zgacha ehtirom ko‘rsatilgan. Ba‘zan ularning sha‘nlari toptalgan davrlar ham bo‘ldi. Keyingi yillarda ilm ahliga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda Vatanning taqdiri muallimlar, ilm ahli qo‘lida. Ular ertangi kun vorislarining tarbiyachilaridir. Shu sababdan ham ularni shoir ko‘ngilni yorituvchi oftobga, ma‘rifat daryosini suv bilan ta‘minlab turuvchi mirobga qiyos etadi. Barcha tilidan bol tomib ularni hurmat qilish, e‘zozlash darkorligini uqtiradi. Keyingi bandlarda muallim go‘yo tog‘ga qiyos etiladi. Hikmat dunyosiga olib boruvchi yo‘lboshchi kabi tasvir etiladi.

So‘z san‘atidagi yana bir muhim mavzulardan biri bu – ona tilimizga bo‘lgan e‘tibor va uni asrab avaylashdir. Bu mavzu ham davrlar osha yashab kelayotgan dolzarb mavzulardan biri. Buyuk shoir, olim, jadid adabiyotining yetakchi vakillardan biri Abdurauf Fitrat o‘zining “Tilimiz” nomli maqolasida turk tilining maqomi haqida ushbu fikrlarni bildirgan edi: “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud (yana, o‘sha) turkchadir. Dunyoning eng boy tili bo‘lgan turkchamiz yolg‘uz arabcha qumriqlar (zabt etilish) bilan emas, forsiycha tepkilari (fors tilidagi predloglar) bilan daxl ezilmishdir.[9]

Chindanda, bugungi kunda ham turkcha ya‘ni o‘zbek tilimizni himoya qilish zarurati bor. Fitrat aytganidek fors tilining hujumidan emas, balki endi rus va ingliz tillarining ta‘siridan bir qadar himoya qilishimiz zarurdir. Til haqida she‘rlar bitgan jonkuyar ijodkorlaridan biri bu Avaz O‘tardir. U ham o‘z tilini himoya qilishga shay millat fidoyisi. Bugungi kunda ham Fitrat va Avaz

O'tarlar singari o'z tilini himoya qilishda davom etayotgan muxammasnavislar juda ko'p. Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Sirojiddin Sayyid, Ro'zmurod Mahmud kabi shoirlar bu borada safdadirlar. Quyida tahlil qilmoqchi bo'lganimiz Sirojiddin Sayyidning Avaz O'tar g'azaliga bog'langan "Kim tilni bilur – elni bilur" nomli muxammasi aynan ana fikrimizni dalillaydi:

Gar ushbu Vatan bizga azal ota makondur,
Sultonlaridin sha'ni aning ro'yi jahondur.
Kim tilni bilur – elni bilur, shoniga shondur,
Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur.[10]

Ko'rinadiki, quyidagi ikki misra Avaz O'tar qalamiga, yuqoridagi uch misra Sirojiddin Sayyid qalamiga mansubdir. Ikki ijodkor bir mavzuda qalam tebratgan. Mazmun mohiyat jihatdan ikki ijod namunasi o'zaro mushtarak. Har bir inson o'z Vatanida yashar ekan, avvalo, o'z ona tilini bilishi zarur. Chet tillarini o'rganish yaxshi. Ammo o'z tilini himoya qilish har bir vatanparvar insonning vazifasidir. Ikki ijodkor ham o'z tilini unutmagan holda yoshlarni o'zga tilni bilishga, til o'rganishga undaydi. Til o'rganish mashaqqatini shohlarning yo'li mashaqqatiga qiyoslaydi. Muxammasda jangda shoh o'z askarini yarim yo'lda qoldirmaganidek, sen ham o'zga tilni o'rganishga bel bog'ladingmi, yarim yo'lda qolma degan fikrga alohida urg'u beriladi. Ilm olmasalar umrlari qafasda o'tadi, o'z qo'llari bilan bir umr o'zlarini qafasga soladilar, keyin kech bo'lmasidan tezroq harakat qilish zarurligi baytma bayt aytib o'tiladi. O'z tiliga bo'lgan hurmat va e'tibor mazmuni she'r so'ngiga qadar saqlanib qoladi.

Muhabbat mavzusi juda keng qamrovli mavzudir. Muhabbat Ollohga, Vatanga, yorga, onaga, ustozga, do'st-u birodarlarga, farzandga nisbatan bo'lishi mumkin. Ana shunday o'lmas muhabbat mavzusi istiqloq davri she'riyati uchun ham xos. Aynan shu mavzuda turli janrlarda asarlar yaratilgan, yaratilmoqda. Ma'lumki, chin insoniylik Vatanni, elni sevish bilan o'lchanadi. Vatanning har tuprog'ini, yerini ko'zga surtib e'zozlash, unga sodiq qolish, bobolardan meros qolgan omonatni asrab-avaylash kabi fikrlar izohi lirik asarlarda ayniqsa chiroyli aks ettiriladi. Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ham aynan shu Vatanni asramoq va avaylamoqdir. Agar biz Vatanimizni asrab – avaylasak, keyingi avlod ham tug'ilgan yeriga xuddi shunday munosabatda bo'ladi. Bugun bizning Vatanimizga bo'lgan munosabatimiz bir kun naslimizda takrorlanadi. Avlodlar bizdan ibrat oladi. Vatanga muhabbat mavzusidagi muxammaslar Jamol Kamol ijodida ham uchraydi:

Har safar boqsam falakka, bir g'aroyib xoli bor,
Men Vatan vasfida so'z aytsam, so'zimning boli bor,
Bu chamanning oy ila yulduz degan timsoli bor,
To jahonda bu Vatanning erk-u istiqloli bor,

Xalqini olam sharaflar, baxt ila iqboli bor.[11]

Xulosa. muxammaslarda yurtga bo'lgan jo'shqin sevgi ifodalangan bo'lib, Vatan osmondagi xolga o'xshatiladi. Vatanni bog'ga, gulga, tog'ga o'xshatishlarini ko'p kuzatganmiz. Ammo osmondagi xol deya tasvir etilishi betakror, kamdan kam uchraydigan tashbeh shaklidir. Vatan vasfini kuylash esa asal, bol totishga tenglashtiriladi. She'rda Vatan chamanzorga qiyoslanadi. Shoir uning timsollari oy va yulduzlar ekanligini ta'kidlab, Vatanning ozodligiga alohida urg'u beradi. She'r muallifi o'z Vatanini maqtashdan charchamaydi. Ushbu muxammasda ko'tarinkilik yuqori o'rinda turadi. Yurt istiqloli uchun shukronalik hissi namoyon bo'ladi. Keyingi bandlarda shoir Vatani tarixiga ham nazar soladi.

References:

1. Erkin Vohidov. O'zbekim.- T.,2022.243-bet.
2. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T., 2014. 178-bet
3. Erkin Vohidov. Saylanma. T.,2022 6.
4. Jamol Kamol Saylanma.Toshkent :Sharq,2016.47b.
5. Жамол Камол. Бош устина, бош устина. Янги шеърлар.—Т.: Шарк, 2016.—93 б
6. Sirojiddin Sayyid.Xamsa hayratlari. Toshkent :Sharq,2016.
7. Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърляти. Монография. – Т., 2012. 82-бет.
8. Маҳмуд Тоир. Янги шеърлар. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2018.—172 б.
9. Abdurauf Fitrat. Saylanma. – Т.: Zabarjad mediya, 2022. 369-373-betlar
10. Сирожиддин Саййид. Асарлар. 1-жилд. – Т., 2018. – 478 б.
11. Жамол Камол. Ёнаётган дала. Сайланма. – Т., 2018. –247 б.